

# Jamiyatda huquqiy ongni shakllantirish va yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar

Behzod Bahrom o'g'li Norbutayev  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

**Annotatsiya:** Bilamizki, insoniyat paydo bo'lgan vaqtdan toki hozirgacha ma'lum bir jamoa, to'da yoki guruhda yashagan va bu orqali jamiyat shakllangan, Har bir etnik xalqning o'z dunyoqarashi, kelib chiqish va rivojlanish tarixi mavjud. Ushbu tezisda Yangi O'zbekistonda jamiyat va undagi amalga oshirilayotgan o'zgarish hamda qabul qilingan qonunlar xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, qaror, huquqiy ong, "Yangi O'zbekiston" huquqiy madaniyat, qonun.

## Formation of legal consciousness in society and the work being done in our country

Behzod Bahrom oglu Norbutaev  
Berdakh Karakalpak State University

**Abstract:** We know that from the time of the emergence of mankind until now, a certain community, gang or group has lived and through which society has been formed, each ethnic nation has its own worldview, history of origin and development. This thesis discusses the society in New Uzbekistan and the changes taking place in it, as well as the adopted laws.

**Keywords:** Society, decision, legal consciousness, legal culture "New Uzbekistan", law.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish deganda avval biz huquq va huquqiy ong nima ekanligini bilib olishimiz shart. Huquq va huquqiy ongning o'zaro bog'liqligi Jamiyat hayotining olg'a qarab rivojlanishida huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish yo'li bilan unga uyushqoqlik va tartib kiritadi. Ijtimoiy hayot rivojiga to'sqinlik qiluvchi, jamiyatning olg'a borishiga halaqit beruvchi, ya'ni jamiyat munosabatlari uchun noxush bo'lgan hodisalarning oldini olishda ham huquqning vazifasi kam emas. Huquq - ozodlik me'yorini belgilab yoki man etib, majburiyat yuklab va aniqlab, odamlarni aniq rivojlanish iziga solib, ularning fe'li-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi. Huquqning tartibga solish ta'siri, uning odam ongiga ta'sirida yuzaga chiqadi. Huquqiy talablar ongda aks etib, shaxs

tomonidan anglab yetiladi, tushuniladi va o'zlashtiriladi, insonning huquqqa munosabatini belgilovchi taassurot va ishonchning murakkab bilimlar birikmasiga aylanadi. Huquq, ijtimoiy hodisa sifatida, ongdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Huquqiy tizimning asosi huquqiy me'yoriy hujjatlar (qonunlar, qonun asosidagi hujjatlar) hisoblanadi. Bu hujjatlarni yaratish, normalarni ijod qilish faoliyatini amalga oshiruvchi alohida organlarga tegishlidir. Umummajburiy huquqiy normalar yaratish jarayonining o'zi oson emas. U huquqiy me'yorni yaratishda ijtimoiy talab va manfaatni anglab yetish va o'rganish, qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni muhokama qilish, qabul qilish va qabul qilingan hujjatlarni fuqarolarga yetkazish bilan bog'liqdir. Bu murakkab, norma ijod qilish jarayonining har bir bosqichi, sohasida har bir qabul qilingan hujjatni anglab yetish huquqiy ongning bevosita ishtirokida kechadi. Yaratilayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijodkorlarining umumiy, huquqiy va kasbiy madaniyati darajasi qancha yuqori bolsa, ular yaratgan hujjat ham shuncha mukammal bo'ladi. Shuning uchun huquqni ijod qilish jarayoni qatnashchilariga, huquqiy ongni takomillashtirish uchun, shu sohaning yuqori darajali mutaxassisi bolishdek yuqori talab qo'yiladi. Ammo, huquq ijod qilish jarayonida faqat shu kasb bo'yicha tayyorlangan odamlargina qatnashmaydilar. Demokratik davlatlarda qonun (loyihalari jamiyatning o'zi tomonidan muhokama qilinadi. Masalan, hozir amaldagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yoki 1996 yilda Oliy Majlis qabul qilgan Mehnat kodeksi loyihasining qator muhokamalari ko'pchilikning qiziqishi va xohishini hisobga olib qolmasdan, ularning huquqiy ong darajasini ham aniqladi. Bundan tashqari, umumiy muhokama jarayonida aholining jalb qilinishi fuqarolarning huquqiy ongini ko'tarish, uning huquq ijodkorlik faoliyatidagi salmog'ini oshirishda ham foydalidir. Huquqiy ong huquqni nafaqat yaratadi va takomillashtiradi, balki rivojlantiradi ham. Uni hayotga tadbiq etishda muhim vosita bolib xizmat qiladi. Biroq, uning chegarasida bo'lib o'tadigan huquqiy talablarni anglab olish jarayoni unchalik oddiy bo'lmay, ancha murakkabdir. Huquqiy talablarga ong munosabatining bir xil bo'lmasligi shaxsning nafaqat real hayotida, balki ziddiyatli fe'latvorida o'zgaradi. Har bir davlatga uyushgan jamiyatdagi qonunbuzarlik shundan dalolat beradi. Huquqiy ong darajasida shaxsning o'zining huquqiy bilimlari ko'lami ham, huquqni qabul qilish holati ham, ma'naviy o'sganligi ham shaksiz ko'zga tashlanadi. Huquqiy ongga faqatgina yuqorida sanab otganlarimiz ta'sir etib qolmay, yana boshqa ko'p omillar ham (jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, maishiy) o'z ta'sirini o'tkazadi. Ijtimoiy-huquqiy yo'l-yo'riq huquqni baholash, uning talablariga munosabat, o'ta xilma-xil omillar majmuining ta'siriga bog'liq holda ongda shakllanadi. Shuning uchun, huquqiy talablarga bolgan, salbiy yoki ijodiy holatning o'zi ham har xilligi bilan farq qiladi. Masalan, bir odamning qonuniy fe'l-atvori uning axloqiy ongi bilan ta'riflansa, boshqasi faqat yuridik javobgarlik oldidagi qo'rquv tufayli o'zini to'g'ri tutadi. Huquqni amalga

kiritishga, demak jamiyatda huquqiy tartib o'rnatishga yordam beruvchi, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tartibga chaqirish kabi tuyg'ular faqat shunday sharoitdagina rivojlanadi. Huquqiy talablarga rioya qilmaslik, albatta huquqiy tartibning buzilishiga olib keladi. Xuddi shuning uchun, huquqiy ongning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi, huquqiy tarbiyaning muhim masalasiga aylanadi.

Aholining huquqiy ongini rivojlantirish maqsadida 1997-yil 29-avgustda "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" milliy dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturda:

O'zbekiston demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallamoqda. Barqarorlik va tartib, millatlararo totuvlik va fuqarolar ahilligi tufayli yosh davlatimiz ishonch va hurmatga sazovor bo'lmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma'naviy o'zgartirish sohasida keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda. O'tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamini yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanmoqda va takomillashtirilmoqda.

Huquqiy madaniyat - umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Insonlar ongida shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy bilimlarga ega bo'lgan va ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi mumkin. Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu Milliy dastur qabul qilingan.

Milliy dasturning maqsadi aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir.

Ko'rsatilgan maqsadga erishishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish;
- barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunga hamda huquqqa hurmat bilan munosabatda bo'lishiga erishish;
- aholining huquqiy savodxonligini oshirish; fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlash.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- fuqaro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati hamda ijtimoiy faolligi yuksalishini ta'minlash;

- aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

- aholini huquqiy axborot bilan ta'minlash, ilmiy-ommabop yuridik adabiyotlar nashr qilinishi va tarqatilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtirish;

- yuridik ta'lim, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimini rivojlantirish;

- huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish;

- milliy an'analar hamda jahon tajribasidan foydalanish asosida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonning shiddat bilan o'sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy- siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo'lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta'minlab bergan ko'plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida nafaqat umume'tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining butun kompleksini qonuniy mustahkamlagan barqaror huquqiy baza tashkil etildi, balki inson huquqlari sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o'rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi.

Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-yanvar PF-5618- sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»<sup>5</sup>gi farmoni qabul qilindi.

Aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi farmoniga muvofiq "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi" ishlab chiqildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" milliy dasturi 466-I 29.08.1997
2. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi" 5618 09.01.2019
3. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi" asosida yoshlarda huquqiy ong va odob-axloq normalarini shakllantirish maqolasi
4. Davlat va huquq nazariyasi Boboyev H.B 2005-Yil